

**O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi
ijtimoiy sug'urta bo'limi tomonidan 2021 yil davomida amalga oshirilgan ishlar
to'g'risida
MA'LUMOT**

2021 yil davomida ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'lari hisobidan viloyatimizdagi korxonalar, tashkilot va muassasalarda xizmat qilayotgan ishchi xodimlardan 941 nafari, shundan 149 nafari bepul kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda o'z salomatliklarini tikladilar. Ushbu maqsad uchun ijtimoiy sug'urta mablag'laridan 2 384 219.6 ming so'm mablag' sarflandi.

Jumladan, "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" davlat dasturi tadbirlari ijrosini ta'minlash maqsadida kam ta'minlangan, ko'p bolali hamda olis va chekka hududlarda, murakkab iqlim sharoitida yashovchi oilalarning ayollaridan 9 nafari, tibbiyot xodimlaridan 6 nafar, ta'lim tizimi xodimlaridan 102 nafar, ishlaydigan keksalardan 24 nafar, "Umid gulshani" sanatoriysida farzand ko'rmagan yosh oilalarning ishlaydigan a'zolaridan 8 nafari kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda bepul sog'lomlashtirildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108 Farmoni ijrosi yuzasidan viloyatdagi xalq ta'limi tuman (shahar) bo'limi mudirlari va metodistlari, umumta'lim muassasalari direktorlari hamda tuman (shahar) kesimida tuzilgan reytingda birinchi beshta o'rinlarni egallagan umumta'lim muassasalarining 2 nafar o'qituvchilaridan 102 nafariga ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'lari hisobidan sanatoriylarda dam olish uchun bepul yo'llanmalar berildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda viloyatimizda faoliyat olib borayotgan 4 ta shahardan tashqari bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarda dam oldirilgan 1129 nafar bolalar uchun ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'laridan 190 724.6 ming so'm mablag'lar ajratildi.